



Norqulov Husniddin Do'sbekovich,
*“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi,
 pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

O'SMIRLAR TARBIYASIDA OTA-ONANING O'RNI

Annotatsiya. Maqola oilada farzand tarbiyasida ota-onaning roli, ya'ni oilada farzandni tarbiyalashda, avvalo, ota-onaning o'zi tarbiyalangan hamda kuchli tarbiyaviy bilimlarni egallagan bo'lishi kerakligi, farzand tarbiyalayotgan ota-onaning har bir harakati, yurish-turishi, muomalasi, boshqalar bilan o'zaro munosabatda oliyjanob fazilatlarini namoyon eta olishi bilan farzandga namuna bo'lishi kerakligi keltirilgan. Shuningdek, ota-onalarning bosh maqsadi o'sib, voyaga yetayotgan farzandlarini har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalashda barkamol shaxs fazilatlarini singdirishdir.

Tayanch so'zlar: oila, ota-ona, farzand tarbiyasi, oilaviy turmush, odob-axloq qoidalari, bilim, ko'nikma, malaka, ma'naviy-axloqiy tarbiya, milliy tarbiya, barkamol shaxs ma'naviyati, er-xotinning huquq va majburiyatlari.

Аннотация. В статье речь идёт о роли родителей в воспитании ребенка в семье. В нём говорится, что сами же родители должны, прежде всего, быть образованными и обладать прочными воспитательными знаниями, каждое действие и поведение которых должно быть примером для ребенка в проявлении благородных качеств во взаимодействии с окружающими. Также отмечается, что главная обязанность родителей – привить качества всесторонне развитого человека в воспитании своих детей, которые вырастут и станут разносторонними людьми во всех отношениях.

Ключевые слова: семья, родители, воспитание ребенка, семейная жизнь, правила этикета, знания, навыки, квалификация, духовно-нравственное воспитание, национальное воспитание, духовность всесторонне развитого человека, права и обязанности супругов.

Annotation. The article deals with the role of parents in the upbringing of child in the family. It says that the parents themselves must, first of all, be educated and have strong educational knowledge, because every action and behavior of the parent should serve an example for the child in manifestation noble qualities in interaction with others. It is also noted that the main duty of parents is to instill the qualities of a comprehensively developed person in the upbringing of their children, who will grow up and become versatile people in all respects.

Keywords: family, parents, child education, family life, rules of etiquette, knowledge, skills, qualifications, spiritual and moral education, national education, spirituality of a well-rounded person, rights and obligations of a married couple.

Kirish. “Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor, qayerda ishlashidan qat'i nazar, kim bo'lishidan qat'i nazar, agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e'tibor bermasa, hech qachon natija bo'lmaydi. Shuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e'tibor beraman. Har bir farzandimga ham, nevaramga ham alohida o'zining munosabatim bor. Har bir nevaramning alohida xarakterini bilaman, orzusini,

istagini bilaman”¹, – degan edi Prezident Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida.

Insoniyat tarixidan ma'lumki, farzand kamoloti oilada shakllanadi. Oila jamiyat hayotini olg'a suruvchi, uni yanada yuksak bosqichlarga yetaklovchi, ravnaq toptiruvchi, kelajak avlodlarni

¹ Sh.M.Mirziyoyevning 61 yoshga kirishi munosabati bilan Facebook ijtimoiy tarmog'idagi rasmiy sahifasiga joylashtirilgan “Janob Prezident” nomli hujjatli filmdagi nutqi. 2018-yil 25-iyul.

tarbiyalab yetishtiruvchi, kamol toptirish uchun mas'ul bo'lgan g'oyat muhim o'choqdir.

Asosiy qism. Oila va oilaviy tarbiya muammolari ichida ota-onalarning tarbiyachilik madaniyatini oshirish va ularga umumiy tarbiyaga oid bilim berish davrimizning dolzarb masalalaridandir. Shu maqsadda ota-onalarni pedagogika yutuqlari bilan tanishtirish oilalarning mustahkamligini ta'minlash vositalaridan bo'lib, bu, o'z navbatida, bolalarning tarbiyasida ham tegishli shakl va uslublarni takomillashtirish yo'llaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotlarga ko'ra, oilada bilim va tarbiyaning yuqori bo'lishi ota-onalarning savodxonligi, har bir bolaning xona bilan ta'minlangani, oiladagi bolalar soni, oilada ota yoki onaning borligi yoki birortasining yo'qligi, ota-onalarning ma'lumoti va kasbi, oilaning moddiy ta'minlanishi va hokazolarga uzviy bog'liq deb aytish mumkin.

Shuningdek, bu ish ota-onalarga umumiy tarbiyaviy bilim berishda olimlarning maslahatlari, oilaviy tarbiyaga oid xalq pedagogikasi tajribalari, mehnat faxriylarining maslahatlari va tavsiyalariga tayanilsagina samarador bo'ladi.

Oilada bolalarning aqliy va jismoniy jihatdan yetuk bo'lib yetishishi uchun ota-onadan ularning axloqiy tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanish talab etiladi. Ma'rifatparvar Abdurauf Fitrat: *“Axloqiy tarbiya – odam axloqini kamolga yetkazish demakdir, ya'ni odamni shunday tarbiya qilish kerakki, fe'li va amali o'ziga ham, boshqalarga ham foydali va manfaat keltiradigan bo'lsin”*², – deb ta'kidlaydi.

Oila ilk ma'naviy-axloqiy va g'oyaviy tarbiya manbayi bo'lib, farzand tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Tarixan o'g'il-qizlar o'z ota-onalaridan o'zlashtirgan dunyoqarashni o'z zamonasiga moslab, o'z dunyoqarashiga aylantirib kelgan. Dunyoqarashning birligi – milliyligi tufayli avlodlar orasida hamfikrlilik, o'zaro ishonch, izzat, maqsad mushtarakligi va samimiyligi bilan tantana qilgan. Halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharm-u hayo, mehr-u oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo, oilada shakllangan.

Azaldan o'zbek oilalarida umuminsoniy, milliy qadriyatlar va ma'naviy-axloqiy munosabatlar qaror topgan. Oilada sog'lom axloqiy muhit, o'zaro muomala madaniyati, axloqiy fazilatlar chuqur ildiz otmasa, bo'shliq – salbiy holatlarning qaror topishi

muqarrar. Oila mustahkam poydevorga qurilib, unda sharqona va jahon andozasiga monand ma'naviy-axloqiy qadriyatlar qaror topsa, sog'lom avlodni voyaga yetkazishda muhim o'rin egallasa, bunday oila ostonasidan Vatan, millat, inson kamoloti, yangi sog'lom avlod kelajagi boshlanadi.

Oilada farzandni tarbiyalash borasida, avvalo, ota-onaning o'zi tarbiyalangan, kuchli tarbiyaviy bilimlarni egallagan bo'lishi talab etiladi. Afsuski, ayrim oilalar (ota-onalar)ning tarixiy ongi, ajdodlari, o'zlari tug'ilib o'sgan o'lka tarixi, ma'naviyati to'g'risidagi bilimlari past darajada. Oilada tarbiya samaradorligini yuksaltirishda ana shu xususiyatlar inobatga olinishi zarur.

A.Avloniy oilada farzand tarbiyasida ota-onaning ilmi bo'lishi borasida to'xtalib: “Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur? degan savol keladur. Bu savolga, “birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir. Ikkinchi, maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir”³, – degan edi. Hozirgi davrda jamiyatni yangilashda oilaning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va axloqiy ahamiyati ortmoqda, yosh avlodni sharqona qadriyatlar asosida tarbiyalashda, ayniqsa, otaga nisbatan onaning o'rni alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Milliy tarbiyada axloqiy tarbiyaning eng muhim talablaridan biri shaxsiy namuna, ota-ona ibratidir. U ota-onalarning asrlar davomida farzandlarni yot g'oyalardan himoya qilish borasidagi maqsadlarini ta'minlaydi, ularning bemehr, behayo, qaysar, kibr-havoli, betgachopar bo'lishining oldini oladi. Mazkur an'ana, qadriyat, oilada ota-onalar farzandlarini o'z vaqtida tarbiyalashini ta'minlaydi, ziyrak bo'lishga chaqiradi. Natijada farzandlar ota-onalarning barcha milliy an'ana talablarini yoshligidanoq o'z vaqtida bajarishga ko'nikib, o'rganib, odatlanib boradi.

Oiladagi muhit ota-ona o'z mas'uliyatini his qilsagina barqaror bo'ladi. Farzand tarbiyalayotgan ota-ona o'zining har bir harakati, yurish-turishi, muomalasi, boshqalar bilan o'zaro munosabatida oliyjanob fazilatlarini namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatan taqlidchan va kuzatuvchandir. Atrofdagilar o'z odatlari bilan ba'zan o'zi sezmagani holda ularga ta'sir qilishi mumkin.

O'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, **“Sizningcha, oiladagi muhit nimaga asoslanib shakllanadi?”** degan savolga auditoriyaning **42% i** “Oiladagi muhit oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlardan

² Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. 2-nashr. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – B. 83-84.

³ Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 26.

kelib chiqib shakllanadi”, degan, **32% i** “Oiladagi muhit ayol kishiga bog‘liq bo‘ladi”, **22% i** “Oiladagi muhit er-xotin munosabatlaridan kelib chiqib shakllanadi”, **4% i** esa “Oiladagi muhit erkak kishiga bog‘liq bo‘ladi”, degan javobni bergan.

Demak, bundan ko‘rinadiki, oiladagi ijobiy yoki salbiy muhit oila a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlardan kelib chiqqan holda shakllanar ekan. Buning uchun ota-ona farzandlari bilan munosabatda mustahkam poydevor yaratishi kerak.

So‘rovnoma ishtirokchilariga **“Oilada ilm olish hamda ma’naviy muhitning ijobiyligi kimga bog‘liq, otagami yoki onaga?”** degan savol berildi. **91%** ishtirokchi “ota-ona birdek mas’ul”, **7% i** “otaga”, **2% i** esa “onaga” degan javobni bergan. Demak, oilada ilm olish va ma’naviy muhitning sog‘lom bo‘lishi ota va onaga bog‘liqligi hammamizga tushunarli holdir.

Otaga bo‘lgan muhabbat bu, birinchi navbatda, unga bo‘lgan hurmatda o‘z ifodasini topadi. Otaning obro‘si uning o‘ziga xos shaxsiyatida namoyon bo‘ladi. “Menga o‘xshab bajar”, “Men qanday ishlasam, sen ham shunday ishla” kabi qoidalarga amal qilinadi. Nazarimizda, o‘g‘il bola xulqining o‘ziga xosligi ham ana shunday xatti-harakatlarda o‘z ifodasini topadi. Shuningdek, ota o‘g‘lini o‘z fikrini bosiqlik bilan ifodalay olishga, munozarali voqeda o‘z fikrini qat’iy himoya qilishga, qiziqqonlik, o‘zligini, qadrini yo‘qotmaslikka o‘rgatadi. Shuning uchun ham o‘g‘il bolani kuchli shaxs sifatida shakllantirishda otaning o‘rni beqiyosdir. Bu sifatlarni esa ota o‘zining shaxsiy namunasida – o‘g‘liga, onaga, ayolga, xotin-qizlarga bo‘lgan munosabatlarida qaror toptirib boradi.

Otalik mehri inson qoniga, tomiriga, hujayrasiga singib ketgan irsiy, ma’naviy qadriyatdir. Ota farzandlar tarbiyasida katta o‘ringa ega, chunki u orqali farzandning ijtimoiy moslashuvi qiyinchiliksiz o‘tadi. Ota tarbiyasini olgan bola hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘ladi. Ham qiz tarbiyasida, ham o‘g‘il tarbiyasida otaning vazifasi mas’uliyatli sanaladi.

So‘rovnoma ishtirokchilariga **“Otaning farzandlar tarbiyasida qanday o‘rni bor, deb o‘ylasiz?”** savoli berilganda, ularning **61% i** “Ota tarbiyasi farzand uchun juda muhim”, **8% i** “Ota tarbiya beradimi yoki onami, buning ahamiyati yo‘q, asosiysi, farzand tarbiya ko‘rishi kerak”, **27% i** “Ota orqali farzandning ijtimoiy moslashuvi qiyinchiliksiz o‘tadi. Ota tarbiyasini olgan bola hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘ladi”, **4% i** esa “Ota

beradigan tarbiyani ona berolmaydi”, degan javobni bergan.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan ma’lum bo‘ladiki, **61%** respondentlar farzand uchun otaning tarbiyasi muhim ekanini keltiradi. Lekin respondentlarning **8% i** farzandga tarbiyani ota yoki ona berishidan qat’i nazar bola tarbiyalanishi kerak, deb javob bergan.

Tarbiya uchun vaqt hech qachon kech bo‘lmaydi. Tarbiyani hamma o‘zidan boshlasa, atrofdagilarga odob-axloq borasida gapirish o‘rinli bo‘ladi. Har bir oilada oqila, iboli, hayoli qizlarni tarbiyalash kerakligini har bir ota-ona bilishi kerak.

So‘rovnomada ishtirok etganlarga **“Qizlar tarbiyasi va axloqiga kim ko‘proq mas’ul, otami yoki ona?”** degan savolga respondentlarning **56% i** “Qizlar tarbiyasiga ota va ona birday mas’ul”, **42% i** “Qizlar tarbiyasiga ko‘proq ona mas’ul”, **2% i** esa “Qizlar tarbiyasiga ko‘proq ota mas’ul”, deb javob bergan.


Bolaning tarbiyasi onaning homiladorligidanoq boshlanadi. Oiladagi shart-sharoit, mehr-muhabbat, atrofdagilarning munosabatlari bolaning tarbiyasida juda katta rol o‘ynaydi. Ayniqsa, o‘g‘il bolalarni haqiqiy yigit sifatida tarbiyalash uchun ularga bolaligidanoq to‘g‘ri saboqlar berish katta ahamiyatga ega.

“O‘g‘il bola tarbiyasiga ko‘proq ota mas’ulmi yoki ona?” degan savolga so‘rovnoma ishtirokchilarining **59% i** “O‘g‘il bolalar tarbiyasiga ko‘proq ota mas’ul” desa, **41% i** “O‘g‘il bolalar tarbiyasiga ham ota, ham ona mas’ul”⁴ deb javob bergan.

Nazarimizda, bolalari bilan do‘st, ularga diqqat-e’tibor bilan qaraydigan, qayg‘ulariga hamdard, xursandchiliklarini baham ko‘ruvchi, talablarida sabrli, bolalariga doimo ma’naviy ko‘maklashuvchi ota-onalargina, tom ma’noda, bolalariga namuna bo‘la oladi. Ularning obro‘si do‘stona munosabati, kerak bo‘lsa, ayblari uchun kechirim so‘rashi bilan yanada mustahkamlanadi.

Ota-onaning bosh maqsadi o‘sib, voyaga yetayotgan farzandlarini har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalashdan iborat. Quydagi chizmada ota-onalar tomonidan tarbiya orqali shakllantiriladigan barkamol shaxs ma’naviyatiga qo‘yiladigan fazilatlarni keltiramiz:

⁴ JBHL-26 ilmiy loyiha doirasida “O‘zbek oilalarining psixologik – ruhiy holatini ilmiy o‘rganish va transformatsiya jarayonlari xususiyatlarini belgilash” sotsiologik tadqiqoti bo‘yicha analitik tahlil xulosasi. 2021-yil.



Oilada farzandlarning ma'naviy-axloqiy jihatdan kamol topishida **ota-onaning vazifalariga quyidagilar kiradi:**

- oilada sog'lom muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olish, farzandlarning ota-onasiga va Vataniga nisbatan mehr-muhabbat tuyg'usini shakllantirishi;

- farzandlarga chuqur axloqiy bilim asoslarini berish, ularning ma'rifatli va ma'naviyatli kishilar bo'lib yetishishini ta'minlash;

- farzandlarning ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol va jismonan sog'lom bo'lishi uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhit yaratish;

- farzandlarning tejamkorlik va ishbilarmonlik ko'nikmalarini shakllantirish;

- ularga sanitar-gigiyenik, ekologik ko'nikmalarni singdirish, tarbiyani diniy aqidaparastlik, ichkilikbozlik va giyohvandlikka qarshi amalga oshirish;

- farzandlar yonida ota-ona o'z azm-u sabotlarini zaif, irodalarini nuqsonli qilib ko'rsatmasligi;

- farzandlariga buyuk allomalar, aqlli, irodali insonlar to'g'risida ertak va afsonalarni ibrat qilib, ko'proq aytib berish;

- farzandni o'z aql va irodasiga qarab harakat qilishga o'rgatishi zarur.

Agarda bola har qanday ishni ota-onasining bosimi ostida bajarsa, irodasi zaif va nuqsonli bo'lib, ulg'ayganda o'z irodasi bilan mustaqil ravishda biror ishning uddasidan chiqa olmaydi. Buning uchun farzandning harakat va fe'lidani kelib chiqqan holda shirin so'zlar va pand-nasihatlar bilan uni turli illatlardan qaytarish kerak bo'ladi.

Shuningdek, oilada farzandni voyaga yetkazish, ma'naviy-axloqiy tarbiyalash katta ahamiyatga ega bo'lib, bu davr farzand tarbiyasi mazmunini tashkil etadi va ular bir qator pedagogik xususiyatlarni o'z ichiga oladi:

- ayrim oilalarda bolalarning tarbiyasi faqat onalar zimmasida, ota esa bu ishdan o'zini chetga oladi. Go'yo farzandlarni bog'cha va maktab tarbiyalab berishi shart. Tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, qadimdan o'g'il bola tarbiyasi bilan ota, qiz bola tarbiyasi bilan esa ona shug'ullangan, lekin umumiy nazorat erkaklarda bo'lgan;

- ota-onalar farzandlariga birdek munosabatda, bir xil mehribon va g'amxo'r, talabchan va qattiqqo'l

bo'lsagina ularning hayoti butun va mukammal bo'ladi. Ota-onalardan biri qattiqqo'llik qilsa-yu, ikkinchisi ularning yonini olsa, tarbiya buziladi. Bolalariga haddan tashqari mehribonchilik qilayotgan ota-onalar ularni hurmat qilishdan oldin o'z-o'zini hurmat qilishni ham o'rgatishi zarur;

– ko'plab ota-onalar bolalarini tarbiyalash borasida o'z vazifa va burchlarini to'la his qilmaydi. Boshqacharoq aytganda, ularda pedagogik tayyorgarlik yetishmaydi. Zotan, oilaviy tarbiya, avvalo, ota-onalarning o'zini o'zi tarbiyalashi demakdir. Barcha ota-onalar ham buni tushunib yeta olmaydi;

– oila hayotidagi turli voqea-hodisalar bola shaxsiga ta'sir qilmay qolmaydi. Ana shu ta'sir natijasida salbiy yoki ijobiy odatlar, turlicha xulq-atvorlar paydo bo'ladi. Ota-onalarning har bir xatti-harakatini bolalar kuzatib turadi. Shuning uchun bolaga u yoki bu ishni qil yoki qilma, deya nasihat qabilidagi o'rgatish yo'li bilan tarbiyalayman, deb o'ylamaslik kerak;

– har bir ota-ona bolasining barkamol inson bo'lib yetishishini istaydi. Ota-onaning fuqarolik burchi ham shuni taqozo etadi. Shunga ko'ra, har bir ota-ona, eng avvalo, mamlakat uchun bo'lajak fuqaroni tarbiyalayotganini unutmazligi lozim;

– ota-ona shaxsining o'zi bola tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Oqilona o'gitlar, pand-nasihatlarining hech biri ularning shaxsiy namunasi o'rnini bosa olmaydi. Bolalarning axloqiy fazilatlarini tarkib toptirishda, oiladagi o'zaro ahillik, halollik va rostgo'ylik, o'zaro ishonchning mavjudligi hamda sog'lom axloqiy muhit muhim ahamiyatga ega;

– oilada bolalarni sevishtirish, ularning shaxsiyatini hurmat qilish va hech qachon ularning izzat-nafsigaga tegmaslik zarur. Bunday jazolash usuli bola nafratini kuchaytiradi. Har qanday g'amxo'rlik talabchanlik bilan hamohang olib borilishi maqsadga muvofiq;

– har bir oilaning o'ziga xos an'analari bola ongiga, uning xulq-atvoriga juda kuchli ta'sir qiladi. Masalan, oila a'zolarining tug'ilgan kunlarini o'tkazish, qarindosh-urug'lar holidan xabar olish va hokazolar.

Bola tarbiyasida ota-onaning ishxonasidagi, mahalla va qo'ni-qo'shnisi oldidagi obro'yi ham katta rol o'ynaydi. Bu farzandlarda ota-onaga nisbatan faxrlanish hissini uyg'otish, ularga munosib bo'lishga intilish uchun xizmat qiladi.

Birinchi tomondan, ota-onalarning bolalar tarbiyasiga doir o'z bilimlarini doimo oshirib borishi,

tarbiyada talabchanlik, ota-ona va katta yoshdagi kishilarning o'zaro ahilligi hamda kichiklarga g'amxo'rlik qilish kabilar oilaviy tarbiya asosini tashkil etadi. Busiz oilaviy tarbiyada muvaffaqiyatga erishishning iloji yo'q.

Ikkinchi tomondan, har bir oilada bola tarbiyasi yuzasidan aniq bir maqsad bo'lishi kerak. Eng muhimi, yosh avlod tarbiyasiga ota-ona yoki aka-uka, opa-singil sifatidagina emas, balki jamiyatning haqiqiy fuqarosi sifatida ham e'tibor berish, yoshlarni mazmunli kelajagimizga ishonch va sadoqat ruhida tarbiyalash zarur.

Biroq ko'plab ota-onalar bolalar tarbiyasiga hali tayyor emasligi, ularga ta'sir etuvchi turli omillardan bexabarligi hamda bola kamolotining murakkab tomonlarini bilmasligi natijasida oilaviy tarbiyada ko'plab ko'ngilsiz voqealar ham sodir bo'lmoqda.

O'zbek oilalarida bolani to'g'ri tarbiyalashda, ularga odob-axloq qoidalarini tushuntirishda ota-onalar oldiga avloddan avlodga o'tib kelgan **qator talablar qo'yilgan:**

– bolani hech kimga yomonlik qilmaslikka, qo'lidan kelgancha yaxshilik qilishga uqtirish, uning ko'ngliga muruvvat tuyg'ularini solishga intilishning kuchli bo'lishi;

– bolani to'g'ri yo'lga yo'naltirib, o'zlari ham shu yo'ldan borishi;

– ota-onaning yaxshi odob va xulq egasi ekani har bir xatti-harakatidan ko'rinib turishi va bu bolalarga namuna sifatida xizmat qilishi;

– yaxshi deb bilgan ishni o'z namunasida ko'rsatishi va bu ishning yaxshiligiga bolani ishontirishi;

– bolani tarbiya qiladigan ota-onaning o'zi to'g'risi bo'lishi;

– bolaning qilayotgan yaxshi ishlariga qarab, uni munosib mukofotlash, xatoga yo'l qo'ysa, tanbeh berish;

– bolalar ota-onaning norozilik kayfiyatini payqashi va buni jazo sifatida qabul qilishi;

– bolaning oldida odillik bilan, ustozlarcha ish olib borish g'oyaviy-axloqiy tarbiyaning eng muhim asoslaridan hisoblanadi.

Shuningdek, ota-onalar o'z farzandlarini komil inson qilib tarbiyalashi ularda Vatanga muhabbat, mehnati va fidoyiligi bilan o'zgalarga foyda keltirish, sadoqat, samimiylilik kabi xislatlarni kamol toptirishga xizmat qiladi. Farzandlarning barkamol insonlar bo'lishida oilaning totuvligi, ota-onaning o'zaro mehr-muhabbati ham samarali ta'sir etadi.

Kishi o'z hayotida ma'naviy-axloqiy kamolotga qanchalik ko'p intilsa, shunchalik o'z xato va kamchiliklarini anglab boradi.

Olib borilgan kuzatishlar natijasida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Oilaviy tarbiya samaradorligini oshirish omillaridan biri bola shaxsini kamolotga yetkazish uchun uni har tomonlama o'rganish, shuningdek, oilaviy tarbiya usullari va shakllariga ijodiy yondashish, uni takomillashtirishdir. Yoshlarni har tomonlama o'rganish ularni o'qishga, mehnatga, o'z-o'ziga, o'rab turgan muhitga, inson kamoloti uchun zarur bo'lgan sifatlardan eng muhimlarini ajrata olishga o'rgatish imkonini beradi.

2. Ota-onalar o'rtasida tarbiyaga oid bilimlarni targ'ib qilish, ayniqsa, oilaviy tarbiyada qiyinchilikka uchrayotgan ota-onalarga jamoatchilik yordamini kuchaytirish lozim.

3. Oilaviy tarbiyada ijobiy yutuqlarni qo'lga kiritgan ota-onalarning tajribalaridan foydalanish uchun ularni maktabning kengaytirilgan yig'ilishlariga, ota-onalar qo'mitalarining majlislariga taklif etish va o'z tajribalari bilan o'rtoqlashishni yo'lga qo'yish nihoyatda muhimdir. Ulardan unumli foydalanish uchun maktablarda ota-onalar kunini joriy etish zarur.

4. Ota-onalar qo'mitalari rahbarlarining bevosita boshchiligida radioaloqalarni tashkil etish. Bunda "Ota-onalar – ilk tarbiyachi", "Ota-onalarning bola tarbiyasidagi shaxsiy namunalari va ularning ahamiyati", "Yoshlarni mehnatga, hayotga, turmushga o'rgatish va tayyorlashda oila, maktab hamda jamoatchilik hamkorligi" va shunga o'xshash mavzulardagi eshittirishlarni tayyorlab, izchil o'tkazish zarur.

5. Bolalarning xalq og'zaki ijodiga oid qiziqishlarini o'stirish maqsadida suhbatlar, hikoyalar, ertak va dostonlar o'qib eshittirishni yo'lga qo'yish lozim.

Shuni yodda tutish kerakki, farzandimni faqat u bilan gaplashganda, nasihat qilganda yoki unga

biror ish buyurgandagina tarbiyalayman, deb o'ylamang. Siz bolangizni hayotingizning har bir onida, hattoki o'zingiz uyda yo'qligingizda ham tarbiyalash yo'llarini izlang. Sizning qanday kiyinishingiz, boshqalar bilan va boshqalar haqida qanday gaplashishingiz, xursand bo'lishingiz yoki tashvishlanishingiz, do'st va dushmaningiz bilan qanday muomala qilishingiz, kulishingiz, gazeta o'qishingiz – bular hammasi bola uchun andoza bo'lib, katta ahamiyatga ega. Chunki oilada farzand uchun birinchi taqlid obyekti ota-ona bo'ladi. Gapingiz ohangi sal o'zgarsa ham, bola buni darhol sezadi, bola fikringizdagi hamma o'zgarishlarni turli yo'llar bilan bilib oladi, lekin o'zingiz bundan bexabar bo'lasiz. Agar siz uyda qo'pollik yoki maqtanchoqlik qilsangiz yoki ichkilik ichsangiz, undan ham yomoni – onani haqorat qilsangiz, siz bolalaringizga nihoyatda katta zarar yetkazgan, ularga yomon tarbiya bergan bo'lasiz.

Oilada bolalarga g'oyaviy-axloqiy tarbiya berishda milliy an'analarni ota-onalar to'g'ri tushunib olishi, qaysi an'analarni qanday maqsad uchun xizmat qilishini yaxshi anglab yetishi juda muhim. Chunki talqin etilgan an'analarni, urf-odatlar mazmunini, avvalo, ota-onalarning o'zlari yaxshi o'zlashtirib, kundalik hayotda qo'llay olsagina, farzandlariga ta'siri samaraliroq bo'ladi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, atoqli pedagoglar tarbiyani maqsadga muvofiq tashkil etish sharoitlaridan biri ota-onalarning g'oyaviy-tarbiyaviy savodxonligida, deb hisoblagan. Ota-onalarni pedagogik va psixologik bilimlar bilan qurollantirmasdan turib, oilada g'oyaviy tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish mumkin emas. Demak, oila hayotini tarbiyaviy jihatdan to'g'ri tashkil qilish uchun o'qituvchilar, keng jamoatchilik pedagogika fani orqali aholiga yordam berishi, ota-onalarga tarbiyaviy bilim berish tizimini ishlab chiqishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh.M.Mirziyoyevning 61 yoshga kirishi munosabati bilan Facebook ijtimoiy tarmog'idagi rasmiy sahifasiga joylangan "Janob Prezident" nomli hujjatli filmdagi nutqi. 2018-yil 25-iyul.
2. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. 2-nashr. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – B. 83-84.
3. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 26.
4. JBHL-26 ilmiy loyiha doirasida "O'zbek oilalarining psixologik – ruhiy holatini ilmiy o'rganish va transformatsiya jarayonlari xususiyatlarini belgilash" sotsiologik tadqiqoti bo'yicha analitik tahlil xulosasi. 2021-yil.